



IQTISODIY RIVOJLANISHGA INVESTITSION MUHIT TA'SIRI VA UNGA BOG'LIQ OMILLAR TAHLILI

Xalilova Jasmina Davron qizi
Toshkent moliya instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida investitsion muhit, unga yaratib berilyotgan sharoitlar hamda unga bog'liq omillar tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, xorijiy investitsiya, investitsion muhit, jahon bozori, iqtisodiy o'sish, indeks.

Tadqiqot metodologiyasi :

Iqtisodiy rivojlanishga investitsion muhit ta'siri va unga bog'liq omillar tahlili bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, statistik ma'lumotlarni va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruxlash, analiz va sintez, induksiya va deduktsiya usullaridan keng foydalanilgan.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish, rekonstruksiya qilish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu, avvalambor, aholi bandligi, uning daromadlarini oshirish kabi muhim ijtimoiy muammolarni yechish imkoniyatini beradi. Shu boisdan ham, mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy va moliyaviy tomondan rag'batlantirish, ularga zaruriy sharoitlarni yaratib berishni davlat siyosati darajasida ko'tarish har jihatdan maqbul yo'l hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti ham mamlakatda oshirilayotgan investitsiya loyihalari bilan tanishish jarayonida "Investitsiya bo'lmasa, iqtisodiyot rivojlanmaydi. Investorlarga muhit, infratuzilma yaratsak, ish joyi bo'ladi, mahsulot ko'payadi, soliq tushadi. Korxonalarning o'z mablag'ini yana aylantirib, faoliyatini rivojlantirishga rag'batlantirish kerak" [1] deya ta'kidladi.

Zotan, mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoq va sohalariga xorijiy investitsiyalarni kiritmasdan turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash,



shuningdek, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

X.Helian P.Mihaela, A.Vaqar, tadqiqotlarida hududlarga xorijiy investisiyalarni jalb qilishning institusional mexanizmi tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalariga muvofiq mamlakat iqtisodiyotidagi institusional sifat o'zgarishlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni hududlarga jalb etish tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi[2].

T.V.Uskovao ilmiy izlanishlarida iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash vazifasi strategik ahamiyatga ega ekanligi, uning yechimi xomashyo eksportidan iqtisodiyotning innovasion modeliga o'tishini talab qilishi, bu borada investisiyalar asosiy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan[3].

M.M.Prusak iqtisodiyotni modernizasiya qilish va iqtisodiy o'sish uchun real sharoitlarni ta'minlash umuman davlatda ham, mintaqalarda ham investisiya faoliyatini faollashtirishni talab etishni ta'kidlay[4].

N.G'.Karimov xorijiy investision korxonalar uchun makroiqtisodiy, qonunchilik va ma'muriy shart-sharoitlarni va imkoniyatlarni hisobga olgan holda barqaror soliq qonunchiligi tizimini joriy etish hamda iqtisodiyotga xorijiy investisiyalarni jalb etish, dasturini shakllantirish bilan bog'liq jarayon-lar tadqiq etiladi[5].

Professor Sh.Mustafaqulov o'z monografiyasida xorijiy investiyalarning mamlakat hududlariga ta'sirini baholay turib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar oqimini mamlakat iqtisodiyotiga yo'naltirish bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy masalalar ham hal etiladi..., investorlarning qarorlariga nafaqat iqtisodiy naflik, balki ijtimoiy naflik ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi deya ta'kidlaydi [6].

Tahlil va natijalar

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati quyidagilar bilan izohlanadi:

- mahalliy ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarning joriy etilishi ta'minlanadi;
- respublika iqtisodiyoti uchun yangi bo'lgan zamonaviy kasblar paydo bo'ladi, qo'shimcha va yangi ish o'rinlari tashkil etiladi, iqtisodiyotda bandlar soni ko'payib, aholining daromadi o'sadi;
- aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati oshadi;



– eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish kengayadi. Bu esa, o‘z navbatida, valyuta tushumining oshishiga olib keladi;

– import o‘rnini bosuvchi tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yiladi (valyuta chiqib ketishining oldi olinadi);

– korxonalar va tashkilotlarning ma‘naviy va jismoniy jihatdan eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari iste‘moldan chiqib, moddiy texnik bazasi yangilanadi, resurslar unumdorligi oshadi.

Shularni e‘tiborga olib, mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, real sektor korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda, avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga ustuvorlik qaratilmoqda. Buning uchun, eng avvalo, mamlakatning investitsion muhit jozibadorligini ta‘minlash talab etiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasining guvohlik berishicha, chet el investitsiyalarining iqtisodiyotga jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy topishida hal qiluvchi omil vazifasini o‘tagan.

Dunyoda investitsiyalarni joylashtirish va investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha raqobat shiddat bilan davom etmoqda. Bir tomondan, transmilliy kompaniyalarning rivojlanib borayotganligi, ikkinchi tomondan, resurslarga egalik qilish borasida bozorlarni taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog‘liq tadbirlarning faollashuvi, uchinchi tomondan, globallashtirish sharoitida jahonni qurshab olgan moliyaviy inqirozning yuqori ta‘siri, siyosiy vaziyatlarning nobarqarorligi kabi omillar investorlarning qarorlarida hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Kelajakda ma‘lum bir foydani ko‘zlab harakat qilayotgan investor o‘z mablag‘ining tegishli qismini bugunning o‘zida qurbon qilish bilan bog‘liq tavakkalchilikka qo‘l uradi. Buning uchun investor xalqaro maydonda yuz berayotgan vaziyatni, investitsiyalar bozorida ro‘y berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy tendensiyalarni tahlil qilishi, iqtisodiy-moliyaviy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida hukumatlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarni kuzatib borishi talab etiladi.

So‘nggi yillarda, jahon bozorlarining girdobli harakati sharoitida, dunyodagi ilg‘or mamlakatlarda iqtisodiy o‘rishni ta‘minlay oluvchi asosiy o‘rish omillari, ya‘ni drayverlarining juda aniq belgilanishini tez-tez kuzatmoqdamiz. Shubhasiz, turli hukumatlar arsenalida iqtisodiy o‘rishni ta‘minlovchi rang-barang mexanizm va vositalar to‘plami mavjud. Biroq, fikrimizcha, iqtisodiy o‘rishga ijobiy ta‘sir ko‘rsata oluvchi turli-tuman omillar mavjud bo‘lsada, hozirgi kunda O‘zbekistonda



uchta innovatsion tarkibiy qism: investitsiyalar, innovatsiyalarva marketing iqtisodiy o'sishning asosiy vositalari sifatida tan olinishi lozim.

Amaliy hayotda investorlar biror bir mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni kiritishi bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni qabul qilishi uchun o'sha mamlakatlarning biznesni tashkil etish va uni yuritish uchun yaratgan shart-sharoitlari, investitsion muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, xususan, xorijiy kompaniyalarning hech qanday moneliksiz kirib kelishi, faoliyat olib borishi uchun erkin iqtisodiy va maxsus zonalarining tashkil etilganligi, soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlarning mavjudligiga e'tibor qaratishadi. Shuning uchun ham ko'pgina rivojlangan transmilliy kompaniyalar to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni biror bir mamlakat iqtisodiyotiga kiritishdan oldin mamlakatning investitsiya muhitini ma'lum iqtisodiy indikatorlardan foydalangan holda baholaydi, ular, odatda, xalqaro indekslar shaklida ifodalanadi.

Global iqtisodiy, investitsion va innovatsion rivojlanish indeksleri ular orasida muhim o'rin tutadi, chunki ular xalqaro investitsiya hamjamiyati tomonidan tan olinadi va foydalaniladi.

Investorlar tomonidan investitsiya yo'naltiriladigan hudud (korxonalar yoki tarmoq) ijtimoiy-iqtisodiy holatini tahlil qilish e'valyusiyasidan ma'lumki, 1960-1970 yillarga nisbatan bugungi kunda o'rganiladigan omillar yoki yo'nalishlar soni 5-6 martaga ko'paygan. Chunki, murakkab bozor sharoitida kelajakni o'ylab aniq bir faoliyatni amalga oshirish juda qiyin bo'lib bormoqda. Boshqa tomondan olib qaraganda ya'ni, bozorning tez-tez o'zgarib turishi va boshqa bir qancha omillar ta'sirida, hatto, eng yirik korxonalar ham reja tuzmaydilar, strategiya tanlamaydilar. Ammo, faoliyatni rejalashtirish juda ko'p foyda keltirishi ma'lum, albatta. Shu bois, investitsion loyihalar strategiyasini tuzishda quyidagi to'rt elementga ko'proq e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir [7]:

- geografik joy;
- bozor hissasi;
- mahsulot-bozor aloqasi;
- raqobat va bozor mukammallashuvi.

Ammo, bugungi kundagidek noaniqlik sharoitida ko'zda tutilmagan omillar ta'siri ham mavjud. Jumladan 2019 yilning oxirida Xitoy Xalq Respublikasining Uxan shahridan boshlanib, keninchalik qariyb butun dunyoga tarqalgan COVID-19 pandemiyasi bunga yaqqol misoldir. U dastlab, 2020 yilning birinchi yarmigacha iqtisodiy turg'unlikka, ikkinchi yarmiga kelib esa ko'plab davlatlarni iqtisodiy



inqirozga olib keldi. Mazkur pandemiya mintaqalar, davlatlar, korxonalarining investitsiya muhiti va investitsion faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.


Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ning tahlillariga ko'ra, xorijiy investitsiyalar tashqi oqimlari o'sish sur'atlari 2020 yilda dunyo bo'yicha o'rtacha hisobda 42 foizga tushib ketgan. Jumladan, AQSh (-1 foiz), Yevropada (-77 foiz), Rossiya (-71 foiz), Yaponiya (-49 foiz), Koreya (-8 foiz) va Xitoyda (-20 foiz)ga kamayish kuzatilgan bo'lsa, Turkiya (6 foiz), Avstraliya (125 foiz), Fransiya (14 foiz), Fillandiya (15 foiz) va Indoneziyada (33 foiz)ga o'sish kuzatildi [8].

Keyingi davrga kelib, COVID-19 pandemiyasining qulashi natijasida global chet el investitsiyalarining 38 foizga o'sib, uning hajmi 846 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Xususan, 2020 yil yakunlari bo'yicha xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha Xitoy (212 mlrd. AQSh dollari) yetakchilik qilgan bo'lsa, ikkinchi o'rinni AQSh (177 mlrd. AQSh dollari) va uchinchi o'rinni Hindiston (64 mlrd. AQSh dollari) egalladi [9].

Jahon amaliyoti va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sarmoyaviy faoliyat muhim o'rin tutadi. Bu iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi tarkibiy o'zgarishlarga hissa qo'shib, ijtimoiy ishlab chiqarish hajmiga va aholini ish bilan ta'minlashga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, bank muassasalari investitsiya talabini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash, eksport salohiyatini oshirish, biznesni jadal rivojlantirish uchun asos sifatida investitsiya va tashqi savdo faoliyatini samarali tartibga solish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmogda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "investitsiya siyosatini yuritishda davlat ishtirokini pasaytirib, xususiy va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushini oshirish kerak", "kelgusi yilda 23 milliard dollar qiymatidagi investitsiyalarni o'zlashtirish zarur. Natijada 226 ta yirik sanoat va infratuzilma obyektlari ishga tushiriladi" [10]. Qayd etish kerakki, 2020 yilda O'zbekiston IHTTning "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun tartibga soluvchi cheklovlar indeksi" ga birinchi marta kiritildi. Ya'ni, investitsiya va iqtisodiy sohalarda institutsional yuksalish va keng ko'lamlı islohotlar hamda tegishli vazirlik va idoralarning ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash doirasida samarali hamkorligi tufayli O'zbekiston 83 ta davlat orasida 43-o'rinni egalladi, unga qo'shni bo'lgan Qozog'iston (56-o'rin), Tojikiston (58-o'rin) va Qirg'iziston (62-o'rin) davlatlarini ortda qoldirdi. E'tiborli jihati shundaki, O'zbekistonda Polsha (44-o'rin), Shveysariya (49-o'rin), AQSh (52-o'rin), Janubiy Koreya (61-o'rin), Kanada (66-o'rin) va Rossiya (77-o'rin) kabi mamlakatlarga nisbatan xorijiy investorlarning



faoliyatiga o'rnatilgan cheklovlar sezilarli darajada kamayishiga erishilgan. Shuningdek, respublikada biznesning investitsiya va innovatsion faoliyatiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan tizimli ishlarning asosiy yo'nalishlari - bank sektorini bosqichma-bosqich xususiylashtirish hisobiga iqtisodiyotning raqobatbardosh modelini shakllantirish, infratuzilmaga investitsiyalarni jalb qilish uchun davlat-xususiy sheriklik vositalarini rivojlantirish, davlat va investorlar o'rtasidagi o'zaro aloqalari jarayonini raqamlashtirish, kapitalni legallashtirishni rag'batlantirish hamda iqtisodiy o'sish va keskin texnologik rivojlanish nuqtasiga aylanishi mumkin bo'lgan eng istiqbolli tarmoqlardan foydalanishga yo'naltirilgan samarali investitsiya siyosatini olib borish asosiy maqsad qilib belgilab olingan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda investitsiya muhiti yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar [11].

Ammo, kuzatuvlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda bunday, ya'ni aholi, korxonalar va tashkilotlarning bo'sh pul mablag'lari nisbatan kam bo'ladi. Shuningdek, ularning investitsion muhiti chet el investitsiyalari va kreditlarini ko'p miqdorda jalb etishga qodir emas, boshqa bir tomondan esa xaddan ortiq chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb etish qisman iqtisodiy qaramlikka sabab bo'ladi. Demak, bunday sharoitda mamlakat iqtisodiyotini moliyalashtirishda o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, bank orqali amalga oshirish ham davlatga ham korxonalarga qo'l keladi. Shu bois, har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda o'z investitsion kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlashining muhim jihati hisoblanadi [12]. Ammo, rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash amaliyotini rivojlantirishning zaruriy sharti – bu risklarni diversifikatsiya qilishdir



[13]. Shu nuqtai-nazardan, kredit bozori sohasini isloh qilish va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini oshirish bo'yicha mamlakatimizda ham qator islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, joriy yildan boshlab banklarni xususiylashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF-5992-sonli Farmoni sohani yangi bosqichga olib chiqishda me'yoriy-huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

"Fitch Ratings" xalqaro reyting agentligi tomonidan O'zbekistonning xorijiy va milliy valyutadagi uzoq muddatli kredit reytingini "Barqaror" prognoz bilan "BB-" darajasida baholadi. Shuningdek, agentlik tahlil va prognozlariga ko'ra, 2020 yilda global pandemiya sharoitiga qaramasdan O'zbekiston iqtisodiyoti 1,6 foizga o'sdi, bunday o'sish 2021 yilda 5 foizgacha va 2022 yilda 5,5 foizgacha ko'tarilishi prognoz qilingan. Chunki, mamlakatning moliyaviy siyosati investitsiyalar va iste'molni qo'llab quvvatlashni davom ettirmoqda, shuningdek uning asosiy savdo sheriklarining ham iqtisodiyoti tiklanayotganligi ta'kidlangan [14]. Bundan tashqari, mazkur reyting bo'yicha mamlakatimizning iqtisodiy erkinligi 53,3 ballga teng bo'lib, 2019 yilgi ko'rsatkichga binoan 140-o'rinda. Biznes erkinligi, mehnat erkinligi hamda investitsiya erkinligi oshib, mamlakat iqtisodiy erkinligi umumiy hisobda 1,8 ballga o'sgan. Bu borada O'zbekiston Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi 43 mamlakat orasida 36-o'rinni egallab turibdi, ammo uning umumiy reytingi mintaqaviy va jahon miqyosida o'rtacha ko'rsatkichidan past [15].

Xulosa

Tadqiqotdan kelib chiqib, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash yo'nalishlariga: investitsiya siyosati, xususiy mulk dahlsizligi, aloqa va transport infratuzilmasi, tashqi va ichki bozor sig'imi, raqobat muhiti, xom ashyo va ish haqi xarajatlari, intellektual salohiyat hamda aholi daromadi kabilarni kiritish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aksar rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qaraganda investitsiyalardan samarasiz foydalanish holatlari ko'proq. Masalan, ular investitsiyalarning asosiy qismini noishlab chiqarish, ya'ni ijtimoiy obyektlar yoki yirik ishlab chiqarish korxonalarining ma'muriy binolarini qurish kabi passiv yo'nalishlarga sarflashadi. Vaholanki, investitsiya bu shunchaki sarflab yuboriladigan mablag' emas, balki, foyda olish maqsad qilingan va qachondir qaytarilishi (o'rni qoplanishi) kerak bo'lgan aylanma kapitaldir. Shu bois, tadqiqot natijasiga ko'ra, investitsiyalardan samarali foydalanishda shaffof investitsiya siyosatini yuritish, raqobat muhiti yaratish, investorlar huquqini himoya qilish, tashqi



va ichki bozorlar, aloqa va transport infratuzilmasini yaxshilash, risk–investitsiya–foйда o‘rtasidagi nisbatlarni chuqur tahlil qilish, investitsiyalarni qo‘shimcha qiymat yaratiladigan yetakchi sohalarga yo‘naltirish va samarali foydalanish kabilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.“Investitsiya bo‘lmasa, iqtisodiyot rivojlanmaydi — Shavkat Mirziyoyev”,25.01.2019,<https://president.uz/uz/lists/view/2267>.
2. Liesbeth Colen, Miet Maertens and Jo Swinnen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. January 2009 DOI: 10.4324/9780203076880 <https://www.researchgate.net/publication/237244956>
3. Uskovao T.V. Roli investitsiy v obespechenii ustoychivogo ekonomicheskogo rosta. Ekonomicheskie i sosial'nie peremeni: fakti, tendensii, prognoz 6 (30) 2013., 45-59 str.
4. Prusak M.M. Strategiya regiona: investitsii v ekonomiku // Finansi. 2001. - № 1. - S. 6-8. 10.
5. Karimov N.G‘. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.
6. Sh.I.Mustafakulov, Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. BMA. 2017. 208-b.
7. Xujamkulov D.Yu., Ismailov D.A., 2019. Investitsiya loyihalarini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 36 b.
8. <https://www.oecd.org/investment/statistics.htm>
9. <https://www.oecd.org/daf/inv/investment-policy/FDI-in-Figures-April-2021-infographic.pdf>
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2020 yil 30 dekabr № 276 (7778) son.
11. Qosimov A.A. Iqtisodiy rivojlanishga investitsion muhit ta’siri va unga bog‘liq omillar tahlili. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021 y.
12. Kamilova I.X. Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda tijorat banklari investitsion kreditlarining rolini oshirish // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2017. № 4, iyul-avgust.
13. Юдина И.Н., 2013. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М. с. 29.
14. <https://www.fitchratings.com/research/sovereigns/fitch-affirms-uzbekistan-at-bb-outlook-stable-09-04-2021>
15. Doing Business 2020 “Economy Profile of Uzbekistan”, World Bank Group. – 2020. – 6 p.